



## JADID MA'RIFATPARVARLARI ASARLARIDA YOSHLAR TARBIYASI MASALASINING YORITILISHI

**Gulboyev Husan Shokir og'li**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7726833>

### ARTICLE INFO

Received: 03<sup>rd</sup> March 2023

Accepted: 12<sup>th</sup> March 2023

Online: 13<sup>th</sup> March 2023

### KEY WORDS

*Jadid, mustamlakachilik, ma'rifatchilik, chor Rossiyasi, rus - tuzem, iqtisodiy taziqlar.*

### ABSTRACT

*Maqola jadidlar olib borgan say-harakatlari va ularning asarlarida barkamol avlod tarbiyasi, Turkiston zaminini rivojlantirish yuzasidan qarashlari haqida ma'lumotlar berilgan.*

Biz bilamizki, olib borilgan say-harakatlarni nafaqat siyosiy jihatdan, balki ta'lim tarbiyani rivojlantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, Ona zaminni ma'naviy va ma'rifiy jihatdan isloh qiish, yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'nan yetuk, intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirish muhim vazifa bo'lib xizmat qilgan. Umuman olganda "jadid" so'zi arabcha "yangi", "yangilik" degan ma'nolarni anglatib, mamlakatni yuksaltirish, yangi tuzumdagi maktablarni joriy qilish, matbuot, so'z erkinligini ta'minlashdan iborat bo'lgan ijtimoiy-siyosiy oqim bo'lgan.<sup>1</sup> Ayni paytda o'zbek xalqi tarixining xorijiy tadqiqotchilaridan biri Boymirza Hayitning fikriga ko'ra o'lka xalqlarining milliy mustaqiligini ta'minlash maqsadida jaditchilik harakati XIX asr oxirlarida boshlangan.

Mamlakatni rivojlantirish va aholini munosib turmush tarzini ta'minlash maqsadida XIX asr oxirida yuzaga kelgan va XX asr boshlarida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar namoyondalari bo'lib ular: Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Cho'lponlar shular jumlasidandir. Bularning barchasining say-harakatlari yoshlarni ilmiy bo'lishini ta'minlash, mamlakatda tub islohotlar o'tkazish, mustaqil O'zbekiston Respublikasi muhtaram birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov aytganlaridek "Yoshlarni ongidagi ma'naviy bo'shliqni mafkurviy imunitet bilan to'ldirish" uchun kurash g'oyasini ilgari surgan. Jadidlarning olib boradigan yo'li va say-harakatlari bo'lib quyidagilarni o'z ichiga olgan bo'lib: Turkiston o'lkasining iqtisodiyotini sanoati, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, rivojlangan mamlakatlar yoshlari bilan bemalol baxslasha oladigan yosh avlodni shakllantirish, madaniyat, fan, texnikaning turli sohalarida yuqori cho'qqilarni zabt etish umumiy qilib aytganda Turkistonda mustaqil davlat barpo etishdan iborat edi.

<sup>1</sup> "Jaditchilik isloxot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash". Toshkent-1999



Bizga ma'lumki jadidchilik Turkiston o'lkasiga 3 xil yo'sinda bolgan bo'lgan. Birinchisi: Turkiston o'lkasi jadidlari bo'lib ular asosan ziyolilardan tashkil topgan va Turkiston o'lkasini Chor Rossiyasiga qarshi bosh qatorlarda turib kurashganlar. Ularning maqsadi Turkiston o'lkasini dastlab muxtor keyinchalik dimokratk davlat qilish tarafdorlari edi. Ikkinchisi Buxoro jadilari ularda Turkistonga nisbatan anchayin qiyin bo'lganligi sababli ularning asosini savdogarlar mullalar, hunarmandlar va mayda do'konorlar tashkil qilgan. Ularning asosiy maqsadi iqsodiy sohani isloh qilish edi. Xususan soliqlarni kamaytirish va Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan Buxoro amirligi doirasidagi islohotlarni joriy qilishdan iborat edi. Ulardan eng ko'zga ko'rinadigani shu ediki "Tarbiyai atfol" jamiyatining tuzulishidir. Negaki ushbu jamiyat Turkistonlik va Buxorolik ilmga chanqoq va izlanuvchan yoshlarni Istanbulga O'qishga yuborar edi. Uchinchisi: Xiva jadidchiligi edi uning asosiy xususiyati shunda ediki bu yerda jadidchilik 2xil yo'nalishda taraqqiy topganlidir. Birinchi yo'nalish xon hokimyatini saqlab qolgan holatda xon hokiyatini tiklash va ijtimoiy islohotlar o'tkazishdan iborat bo'lsa, ikkinchisi esa yangi uslubdagi maktablarni joriy etgan holda mamlakatda ziyolilarni ko'paytirish va aholining erkin turmush tarzini ta'minlash edi.

Vatanga sodiqlik va uning mustaqilligini tiklash xis-tuyg'ulari ham jadidlar yetakchiligida jamiyatdagi barcha tabaqalarni ozodlik kurashiga chorlagan. Sharoit taqozosi ko'ra birinchi navbatda xalqning savodini chiqarish, yoshlarning bilimni oshirish, milliy xis-tuyg'ularini va siyosiy ongini o'stirish uchun kurashganlar. Cho'lpon, Behbudiy, Usmon Nosir, Fitrat kabi mutafakkirlar ko'plab ilmiy izlanishlar olib borgan. Ular chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o'z milliy davlat tuzish, xalq orasida ziyo tarqatish borasida izchil izlanishlar olib borgan. O'z asarlarida faqat xalqni ziyoli qilibgina qolmay vatanni sevish, ardoqlash, asrab-avaylash kabi tuyg'ularni asarlarida targ'ib qilgan. Ular bu borada umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish uchun harakat qilgan. Cho'lpon, Behbudiy, Usmon Nosir, Fitrat kabi jadidlarimiz alohida jonbozlik ko'rsatgan. Turkiston yosh avlodlarini ma'rifatli qilishda 2 bosqichli ta'limdan iborat bo'lgan. Birinchi bosqich o'quvchilari 4 yil taqsil olgan bu esa "Ibtidoiy tuzum" deb atalgan birinchi bosqichni yakunlagan o'quvchilar 9 yil o'qigan o'quvchi yoshlardan ko'ra yaxshi saboq chiqargan. Ikkinchi bosqichni a'lo baxolar bilan yakunlagan o'quvchi yoshlar turkiy, fors, arab va rus tillida bemalol erkin so'zlasha olgan. Bundan ko'rinadiki jadidchilik harakati namoyondalari yoshlarni o'qitishda yuqori sifatli ta'limni yo'lga qo'yganligidan dalolat beradi. Buning asosiy sabablaridan biri jadidlarimizning chet el jadidlari bilan o'zaro xalqaro aloqalari sifatli yo'lga qo'yilganligidir. Ya'ni Misr, Turkiya, Rossiya jadidlari oqimidan xabardor bo'lganligidandir.

Maktab-maorif ishlari bilan bir qatorda ,jadid marifatparvarlarining yana bir yutuqlaridan biri, ilk o'zbek matbuotining yaratilishi va ko'p vaqt o'tmay turli ma'rifiy jamiyatlarning paydo bo'lishidir. Matbuotning paydo bo'lishi xalqning savodli bo'lishi bilan bir qatorda, jamiyatning munosib turmush-tarzi yaxshilanishi, o'sib kelayotgan yosh avlodning shakillanishida tamal toshi bo'lib xizmat qilgan matbuotning tashkil qilinishi. Ayni bu harakatlar bevosita ma'rifatchilikni ham ma'naviy, ham moddiy davomiyligini ta'minlashini asosiy vazifa qilib belgilab olgan edi. Jadidlarimizning bu sohadagi ishlarini amalga oshirilishida ya'ni, gazetalar muntazam chiqib turishi, alohida istedad ko'rsatgan yoshlarni xorijga taqsil olishga yuborish uchun ham mablag' talab etilgan. Tijorat va boshqa mablag' talab qilinadigan barcha xarajatlarni o'zlari mustaqil ravishda jadidlarimizning o'zlari



topganlar. Bundan ko'rinadiki xalqni ma'rifatparvar bo'lishida shu bilangina chegaralanib qolinmadi, ilim olish g'oyasini targ'ib etildi va buning natijasi o'laroq teatr vujudga keldi. Teatrdan ko'zlangan asosiy maqsad xalqni savodli bo'lishga undash, vatnni sevisga o'rgatish shu bilan bir qatorda teatrdan tushgan foydani ilm-fan, maorif yo'lida sarf qilishdan iborat edi. Umumiy qilib olganda barcha jadidchilarning maqsadlari bir edi, Ya'ni Turkiston deya atalgan ona zamimini ziyoli qilish, barkamol avlodni shakillantirish, xalqni erkinligini ta'minlashdan iborat edi.

Zamondoshlari tomonidan "Jadidchiikning otasi" deya yuksak e'tirofqa sazovor bo'lgan mahmudxo'ja Behbudiy o'zasarlarida shunday yozadi "Chet ellarda o'quvchi yoshlarga rus, farang, ingliz tillarida mukammal dars o'tiladi, tibbiyot oilygohlarida laboratoriyalar va jarroxlilik xonalari borligini takidlab muqaddas zamin bo'lgan Turkiston o'lkasini naqadar ortda qolganligi"ni aytib hafa bo'lganligini yozib o'tadi.<sup>2</sup>

"Mahmudxo'ja Behbudiy qoldirgan me'ros bugungi avlod uchun bebaxodir. Zamondoshlaridan biri bu zotni "Turon-Turkiston quyoshi"deb ta'riflagan edi. Bu quyosh bugunning zulmatini ham yoritib turibdi. Ulug' donishmand bobomizning hikmatu nasixatlarini o'qir ekanman buyuk ziyokor tafakkuri, matonati va xotirasi oldida bosh egaman" deya ta'rif bergan Xurshid Davron. Darhaqiqat ushbu bobokalonlarimizning o'chmas me'rosi bugungi kunning tamal toshi bo'lib xizmat qilmoqda. Negaki, ular xalq orasida ilmni targ'ib qilibgina qolmay tarbiyaga ham alohida to'xtalganlar. Chor Rossiyasi tomonidan qaysidir ma'noda qobiq ostida xalqning ommaviy savodxonligini oshirmaslik syosati yuritilgan bo'lib bu esa o'z navbatida o'lka ma'rifatparvarlari uchun ayanchli holat edi. Avloniy o'z she'rida shunday yozadi "Oynai har millat erur til-adabiyot" ya'ni jamiyatni tarbiyalashda, ularning iymon e'tiqodini mustahkam qilishda adabiyotning ro'li beqiyos eknligini aytib o'tadilar. Turkiston istilo qilingandan keyin toshbosmalar paydo bo'lishi va yangi gazetalar chop etila boshalnishi qisqa qilib aytganda mahalliy aholini ruslashtirish maqsadida chor hukumati tomonidan tashkil qilingan rus-tuzem maktablariga qarama-qarshi tarzda xususiy shaxslar tomonidan tashkil qilingan yangi usul maktablarining barpo etilishi singari hodisalar oz' navbatida xalqni ilm-fan nuridan baxramand qilish orqali o'zligini tanitishga intilish harakati ma'rifatparvarlarni har qachongida ham o'sishiga olib keldi.

XIX asr oxiri XX asr boshlari o'zbek adabiyoti uchun "Ma'rifatparvarlik adabiyoti" sifatida talqin qilinadi.<sup>3</sup> Bu bejiz emas buning birgina misoli Abdulla Qodiriyni romanchilikka asos solgani bu davr o'zbek adabiyotiga ulkan tuxfa edi. O'zbek adabiyotida xalqni ilm-ma'rifatga yetaklash, ma'rifatli qilish orqali aholining erkinligi va munosib turmush tarzini ta'minlash yetakchi o'rin tutar edi. Ma'rifatparvarlar qayerda bo'lmasin xalqni ilm-fan nuridan baxramand qilish orqali yangi va yaxshi hayotga erishishi kerak bo'lgan avlodni tarbiyalab yetishtirmoqchi bo'ldilar. Bunda bollalar asosiy o'rinda turadi. Negaki, mamlakat kelajagi yoshlar qo'lida. O'sib kelayotgan yosh avlod qanchalik bilimli va ilmga chanqoq bo'lsa

<sup>2</sup> "Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari". Batiyor Hasanov, Naim Karimov. Toshkent -2016

<sup>3</sup> "Buxoro jadidlari". Nusratillo Naimov. Toshkent -2000



mamlakat kelajagi buyukdir. Ma'rifatchilar buni yaxshi anglagan holda yosh avlodni savodli qilishga intilganlar. Avvalo ma'rifatchilik harakati maktab maorif tizimiga bevosita bog'liq bo'lsa XX asr boshlaridagi o'zbek ma'rifatparvarlik harakatining yetakchi namoyondalarida va o'zbek bolalar adabiyotining asoschilaridan bo'lmish Abdulla Avloniy atganidek "Katta yoshli odamni qayta tarbiyalagandan ko'ra, yosh bolani avval boshdan tog'ri tarbiyalash osonroqir" deya aytib o'tgan. Albatta bola bamisoli niholdir uni to'g'ri tarbiyalab, baquvvat daraxt qilish insonning o'ziga bog'liqdir. Jamiyat gullab yashnashi va rivojlanishida yosh avlodning o'rni beqiyosdir. Muhtaram O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Kelajak yoshlar qo'lida". Bejiz emaski buyuk mutafakkirlarimiz bu yo'lda mardonavor kurashgan va xalqning yuksak salohiyat sohibi bo'lishida tinimsiz mehnat qilgan.

Bejiz emaski marifatparvarlarimiz Turkiston zaminini to'la to'kis yashashlari, barkamol avlodning jismonan sog'lom va ma'nan yetuk bo'lishida so'ngi nafasiga qadar harakat qilgan. Ayniqsa tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratganlar. Ota-onalar farzandining tarbiyasi uchun ma'sul shaxs bo'lib, ularning jamiyatda yetuk kadr bo'lishi uchun harakat qilishlarini qat'iy uqtirganlar. Buning yaqqol isboti sifatida ma'rifatparvar yosh avlod tarbiyasi uchun ko'plab asarlar bitgan mutafakkir bobomiz Abdurauf Fitrat shunday deydi "Xalqning aniq maqsad sai harakat qilishi, davlatmant bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushushi, baxtsizlik yukuni tortishi, e'tibordan qolib o'zlariga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikdanolgan tarbiyalariga bog'liq" deb bejiz aytmaganlar. Darhaqiqat farzand tarbiyasi bugungi kunning ham muamosi sanaladi. Insonning kim bo'lishi jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida tarbiya masalasi o'ta muhim sanaladi. Xalqimizda bir buyuk naql bor "Qush uyasida ko'rganini qiladi". Albatta ota-onalar o'zlariga to'g'ri bo'lib, farzandiga to'g'ri tarbiya bersalar farzand jamiyatda o'z o'rnini topadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, biz buyuk yurt farzandlarimiz, tariximiz boy, qadimdan ko'plab ilm ahlini o'zida mujassam etgan maskanda yashab kelmoqdamiz. O'lkamizda jadidchilik harakati boshlanishi bu yangi iqtisodiy o'zgarishlar bo'lishiga undadi. Bularning barchasi xalqni ma'rifatli qilish edi. Vatanni sevish, kindik-qoni to'kilgan muqaddas zaminni asrab-avaylash, yoshlarni jismonan sog'lom, ma'nan yetuk bo'lishi uchun so'ngi qoni to'kilgunga qadar harakat qildilar. Biz ma'rifatparvar bobolarimizning o'lmas asarlarini o'rganishimiz kerak va shu yo'l bilan bugungi kunni tashvishga solayotgan muammolarga yechim topamiz. Darhaqiqat ushbu ulkan xazinani qanchalik ko'p targ'ib etsak xalqimiz, ayniqsa, o'sib kelayotgan barkamol yosh avlod bugungi tinch va osoyishta erkin hayotning qadrini anglab yetadi, ich-ichidan his qiladi. Jadidchilarimiz tomonidan ayni gazetalarning chop etilishi, jurnallarning chiqishi yosh avlod uchun edi. "Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najo, -yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir"-Adulla Avloniy.<sup>4</sup> Haqiqatda ham jamiyat taraqqiyoti biz yoshlar qo'lida. Bejiz emaski davr nuqtai nazaridan zamonaviy dolzarb masalalarni, barcha qiyinchiliklarni, hayotning ijtimoiy-siyosiy, madaniy yo'l bilan bartaraf qilishda ma'rifatparvarlarimiz o'z asarlarida, maqola va jurnallarda aks ettirgan. Ular yoshlarni ilimli qilishi va chet ellarda taqsim olish bilan birga yetuk olim bo'lib, Turkistonda yangi iqtisodiy o'zgarishlar, eng so'ngi texnologiyalar, yangi sanoat ishlab chiqarish zonalari,

<sup>4</sup> "Abdurauf Fitrat" ilmiy ommabop nashr. Yoshlar ishlari agentligi. Toshkent-2022



zamonaviy dehqonchilik usullarini olib kelishiga ishonganlar, eng muhimi shunda ediki, jadidchilarimiz har qanday og'ir sharoitda ham o'z qarashlarini o'zgartirmadilar va shu yo'lda o'z jonini fido qildilar. Chor hukumatining mustamakachiligidan ozod bo'lishi uchun kurash maydoniga chiqqan ushbu o'g'lonlar ona yurtning qashshoqlik, qullik, savodsizlikdan olib chiqishda yosh avlodni asosiy kuch ekanligini qat'iy tushungan holda, ularning ongi va saviyasini oshirish uchun ko'p say-harakatlar qilganlar. Mustaqillikdan so'ng muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan 120 nafar fidoiylariylarimizning pok nomlari oqlandi, ularga yetqazilgan moddiy zarar davlat xisobidan ularning farzandlari, qairindoshlariga qoplab berildi va ularning nomi abadiylashtirildi. Shuni aytish joizki ular hozirgi mustaqil O'zbekistonni orzu qilib o'tdilar va shu yo'lda jonlarini fido qildilar. Biz yoshlar otabobolarimizning ulkan me'rosini o'rangan holda ularga munosib bo'lish bilan bir qatorda unga amal qilishimiz, chet el yoshlari bilan bemalol madanyat, ilm-fan, texnika, sport sohasida raqobatlasha olishimiz va yurtimiz bayrog'ini jahon arenalarida yuqori ko'tarishimiz bilan bir qatorda ona Vatanimizni ko'z qorachig'imizdek asrashimiz kerak. Bejiz emaski "Vatan ostonadan boshlanadi". Darhaqiqat biz ushbu bobolarimizning ulkan me'rosini o'rganishimiz va unga amal qilishimiz bilan bir qatorda tinimsiz mehnat qilishimiz lozim. Zero ular ushbu kunning orzu qilib o'tdilar va bu yo'lda o'z jonini qurbon qildilar. Biz yosh avlod ularning orzularini amalga oshirishimiz va ulardan doimo faxrlanishimiz kerak.

### References:

1. "Jaditchilik isloxot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchunkurash". Toshkent-1999
2. "Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari". Batiyor Hasanov, Naim Karimov. Toshkent -2016
3. "Buxoro jadidlari". Nusratillo Naimov. Toshkent -2000
4. "Abdurauf Fitrat" ilmiy ommabop nashr. Yoshlar ishlari agentligi. Toshkent-2022